



AHOLIGA SIFATLI IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISHDA JAMOATCHILIK FIKRIGA TAYANISH SAMARADORLIGI

Abduraxmonova M.M

FarDU – Sotsiologiya fanlari doktori.

Turgunboyev A.F

FarDU, o'qituvchi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarda o'zi tanlab olgan demokratiyaga asoslangan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan og'ishmay dadil bormoqda. Xalqimiz demokratik tamoyillar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili ekanligini chuqur anglay boshlashi bilan ularning ijtimoiy ongi va tafakkurida tub o'zgarishlar yuz berib, siyosiy va huquqiy madaniyati o'sib bormoqda.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishdan dastlabki kunlardan boshlab aholini ijtimoiy himoya qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish masalalariga katta e'tibor berib kelmoqda. Bu o'rinda jamiyatdagi aholini alohida yordamga muhtoj qatlamlari – keksalar, yolg'iz qariyalar, imkoniyati cheklangan insonlar, himoyaga muxtoj va alohida ehtiyojga ega bo'lgan oila va bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy ko'maklashuv tizimini takomillashtirish ijtimoiy ish sohalari sifatida rivojlantirilmoqda. Bu amaliy harakatlarni o'rganish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Mavzuni dolzarbligi va o'rganishning ahamiyati to'g'risida so'z yuritganda muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan ta'kidlangan quyidagi fikrlar uning mohiyatini oshib berishga yaqindan yordam beradi.

"...ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan, hozir ham shunday va kelgusida ham shunday bo'lib qoladi.

Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o'ziga xos tizimi yaratildi. **"Temir daftar"**, **"Ayollar daftari"**, **"Yoshlar daftari"**, **"Mahallabay"** va **"Xonadonbay"** ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etildi. Shu asosda muammoga oid mavhum ko'rsatkichlar emas, balki yordam va ko'makka muhtoj har bir oila va fuqaroning, xotin-qizlar, yoshlarning muammolari o'z joyida aniq o'rganilmoqda, ular vaqtida va samarali hal etilmoqda.¹⁹

Mamlakatimizda ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib aholini ijtimoiy himoya qilish yo'nalishida ko'plab qonunlar va hukumat qarorlari va farmonlari qabul qilindi. Hususan, 05.09.2014 yil "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi 376-tonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 26.12.2016 yil "Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi 415-tonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 07.02.2017 yil "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi. T.: 2020 yil 24 yanvar.



PF-4947-son Farmoni, 25.07.2022 yil "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-son Farmonlari hamda ko'plab boshqa qonun hujjatlarida aynan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining huquqiy asoslari ko'rsatib berildi.

Demokratik tamoyillar asosida tub ijtimoiy-siyosiy islohotlar o'tkazish jamiyatdagi barcha sohalarda keng xalq ommasining faol ishtirokini ta'minlashga erishishni talab qiladi. Shundan kelib chiqib o'zini o'zi boshqarish tuzilmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va eng muhimi jamoatchilik muhokamalari institutining roli har tomonlama mustahkamlanib bormoqda. Bu o'z navbatida aholining ijtimoiy-siyosiy jihatdan faollashuviga olib kelish bilan bir qatorda jamoatchilik nazoratining rivoj topishiga turtki beradi.

"E'tirof etish kerakki,- deb ta'kidlaydi muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev, - biz parlament nazorati, jamoatchilik nazorati, jurnalist tekshiruvi kabi demokratik institutlar hali to'liq shakllanib, hayotimizdan chuqur joy olgani yo'q. Tabiiyki, buning uchun avvalo yetarli moddiy-texnik sharoitlarni yaratish, eng muhimi, zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tarbiyalashimiz kerak"²⁰.

Albatta, O'zbekiston taraqqiy etgan davrdan boshlab ijtimoiy davlat sifatida, o'z xalqini himoya qilib kelmoqda. Davlat byudjetining 60 foizga yaqin qismi aynan ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilganligi ham sohaning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib bermoqda.

Ijtimoiy-siyosiy islohotlar o'tkazish jamiyatdagi barcha sohalarda keng xalq ommasining faol ishtirokini ta'minlashga erishish lozimligi bilan xarakterlanadi va o'z samaradorligni ko'rsatib beridi. Shundan kelib chiqib o'zini o'zi boshqarish tuzilmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va eng muhimi jamoatchilik muhokamalari institutining rolini yanada mustahkamlash va takomillashtirish zarurdir. Bu o'z navbatida aholining ijtimoiy-siyosiy jihatdan faollashuviga olib kelish bilan bir qatorda jamoatchilik fikrining paydo bo'lishiga va jamoatchilik nazoratining rivoj topishiga turtki beradi.

Mavzuni o'rganish maqsadida jamoatchilik fikri tushunchasining ilmiy asoslariha ahamiyat qaratish lozim. Jamoatchilik fikri bilan ishlashda aholining har bir qatlamiga alohida yondashish lozimligini, fuqarolarning ijtimoiy manfaatlariga to'g'ri baho berish va ilmiy nazariy tushunchalarga asoslangan holda ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 yilning 17 fevral kuni 2021–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan PF-5634 sonli Farmoyishi imzolanishi mazkur tizimning kelgusida davlat ahamiyati darajasida ekanligidan dalolat bermoqda. Ushbu Farmoyish

²⁰ Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston" – 2017, 49 – bet



bilan

2021-2030 yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi konsepsiysi va strategiyani ishlab chiqish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanishi bu sohada ko'plab yangiliklar va loyihalar ishlab chiqilishi imkoniyatlarini kengaytiradi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbuslari bilan 2022 yil "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" hamda 2023 yil — "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilindi. Bu ham ijtimoiy himoyaga muhtoj, boquvchisini yo'qotgan, nogiron, ko'p bolali oilalar sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy siyosat salohiyatini yanada kuchaytirish maqsadini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Keyingi yillardagi barcha yillar dasturlarida ijtimoiy himoya uchun yo'nalislar belgilangan.

Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida jamoatchilik fikrini o'rganish masalasida ijtimoiy ish xodimining roldan kelib chiqib taqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdi-ki, ijtimoiy ish obyekti va subyektini aniqlash bu faoliyatni tashkil etish hamda boshqarishda katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalari obyekt sifatida undagi ishtirokchilar esa subyekt sifatida ishtirok etishlari tadqiqot natijalarida ma'lum bo'ldi.

Mavzuni o'rganish maqsadida anketa usuli yordamida tadqiqotlar olib borildi. Aholining hususan, o'quvchi yoshlar hamda o'qituvchilarning fikri o'rganildi. Anketa yordamida jamoaning turli muammolarini to'liq qamrab olish mumkin. Shu bois bu tadqiqotda anketaning umumiyligi va saralash metodlaridan foydalanishmaqsadga muvofiq deb topildi.

Anketa so'rovi o'tkazilishida Farg'ona viloyatining Farg'ona shahar hamda Yozyovon tumani umumiyligi o'rta ta'lim maktablarida o'tkazildi. Tadqiqotning umumiyligi bo'yicha 244 nafar o'quvchi yoshlar hamda 120 nafar turli fan yo'nalishlari bo'yicha o'qituvchilar hamda 13 nafar ma'muriyat xodimlari ijtimoiy so'rvnomada ishtirok etdilar. O'tkazilgan so'rvnomalardan qisqacha misol sifatida keltirib o'tishni lozim topdik.


So'rvnomada ishtirok etgan o'quvchilardan dastlab, oilaviy ahvolini o'rganish va mavzu yuzasidan qisqacha ularga baho berish maqsad qilib olinib, 1-diagrammada Oilangizda kimlar bilan yashaysiz degan savol berildi.

(1-diagramma)



O'quvchilarning aksariyat 84% bugungi kunda ota-onasi bilan birga yashayotgan oilalardan ekanligi, 8% yaqin qarindoshlari bilan va 8% to'liqsiz oilalarda istiqomat qilishi ma'lum bo'ldi.

(2-diagramma)



So'rovnomaning 2-diagrammasiga binoan o'quvchilarning maktabga o'z ixtiyorini va qiziqishlari bilan kelishi borasida so'ralganda 65% yaxshi kayfiyatda kelishlari, 30% a'lo kayfiyatda kelishlari va 5% yomon kayfiyatda kelishlari aniqlandi. Bu o'z navbatida 65% o'quvchilarni maktabka kelish kayfiyatini a'lo darajaga olib kelish uchun matabda ijtimoiy ish hodimini rolini kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi.


O'z o'rnidagi maktab o'quvchilarining bu boradagi fikrlari orqali sinfga mas'ul o'qituvchining har bir bola bilan individual tarzda ishlashlari uchun imkoniyat



doirasini kengayrish lozimligini taqozo etadi. Shuningdek, sinfdagi o'quvchilarning son jihatidan ko'pligi o'qituvchi faoliyatida turli muammolarni keltirib chiqaradi.

3-diagrammada Agar siz maktabda zo'ravonlikka uchragan bo'lsangiz sizga yordam berilgan holatlar bo'lganmi? savoliga o'quvchilarning 33% qismi o'qituvchilarning nazoratida ekanliklari va ularga ishonishlarini, yana 33% qismi o'quvchilar o'zlarini sinfdoshlari va yaqin do'stlari himoya qilishlarini va 24% o'quvchilar o'zlarini o'zi himoya qila olishlarini va 10% o'quvchilar bunday holatga tushmaganiklarini bildirdilar. Bu albatta ayrim ijobjiy holatlar mavjud ekanligini ko'rsatib beradi. Ya'ni o'quvchilar dars jarayonlari mobaynida hususan, mакtabga kelgan paytidan boshlab maktab ma'muriyati xodimlari va o'qituvchilar nazoratida ekanliklari quvonarli holat. Lekin bunga qo'shimcha tariqasida barcha o'quvchilarning fikrini maktab ma'muriyati xodimlari va o'qituvchilar nazoratida ekanliklariga etkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

(3-diagramma)



Kelajakda mакtabda zo'ravonlikka qarshi kurashish uchun siz nimalarni taklif eta olasiz? (4-diagramma)

Ushbu savolga o'quvchilarning javoblari umumlashtirilib, 50% o'quvchilar mакtablarda doimiy qattiqqa'l intizom o'rnatilishini, 22% o'quvchilar mакtabdagi hulqi buzuq o'quvchilar bilan alohida ishlash choralarini ko'rish lozimligini, 21% o'quvchilar mакtablarga kuzatuv kameralarini ko'proq o'rnatish kerakligini hamda 7% o'quvchilar sinflardagi o'quvchilar bilan birgalikda zo'ravonlik xolatlarini o'zaro muhokama qilib turish kerak ekanligini bildirdilar.

(4-diagramma)



Kelajakda maktabda zo'ravonlikka qarshi kurashish uchun siz nimalarni taklif eta olasiz?

maktablarda kuzatuv
kameralarini
ko'paytirish kerak
21%

yuqori sinf
o'quvchilarini
nazoratga olish kerak
0%

hulqi buzuq
o'quvchilar bilan
alohida ishslash kerak
22%

sinfdag'i o'quvchilar
bilan zo'ravonlik
holatlari muhokama
qilib turish zarur
7%

- sinfdagi o'quvchilar bilan zo'ravonlik holatlari muhokama qilib turish zarur
- maktabda doimiy qattiq intizom o'rnatish zarur deb hisoblayman
- hulqi buzuq o'quvchilar bilan alohida ishslash kerak
- yuqori sinf o'quvchilarini nazoratga olish kerak



Mazkur tadqiqotimiz o'quvchi va o'qituvchilar jamoalarida anketa usulidan foydalanib sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va uning natijalarini umumlashtirish masalalariga bag'ishlandi. Ta'lrim muassasalarida yuz berayotgan ko'p qirrali ijtimoiy jarayonlar sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan o'rganildi. Turli metodlar yordamida jamoasidagi barcha muammolarni ilmiy-amaliy o'rganish yaxshi natijalar berishi mumkin. Anketa so'rovi yordamida esa, biz o'qituvchilarning mehnat samaradorligi, ularning faolligi, o'zaro munosabatlari, mehnat intizomini mustahkamligi, rahbar va xodim o'rtaсидagi munosabatlarni takomillashtirish kabi holatlarga baho berish imkoniyatlariga ega bo'ldik.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasi hamda o'rganilgan manbaalarga asosan quyidagi umumiylar hulosalarni keltirib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, hozirda aholini ijtimoiy himoya qilish masalasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, uning turli muammolarini regional masshtabda o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Buning asosiy sababi jahonda ijtimoiy ko'makka muxtojlarga ko'mak berish, ularni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan talab va e'tibor kuchayib borayotganligi, yangi-yangi tizimlar shakllantirilish faoliyati yo'lga qo'yilayotganligidir (*Misol: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi*). Ijtimoiy-gumanitar yordam berish harakati ijtimoiy ish obyektlari va subyektlarini o'zida birlashtirganligi bois o'zaro tajribalarni o'rganishga bo'lgan intilish asosiy masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Ikkinchidan, jahoning rivojlangan davlatlari qatorida mamlakatimizda ham mustaqillik sharofati bilan ijtimoiy ishning faoliyat turlari yangilanib, jahondagi ilg'or tajribalarni o'rganish asosida samarali yo'lga qo'yilmoqda. Uning aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini o'rganishga bo'lgan ilmiy-amaliy qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Bu respublikada olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning har bir obyekti va subyekti alohida tadqiqotlar markaziga



aylanib bormoqda. Eng muhim, aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini aniqlashda jamoatchilik fikriga tizimli va maqsadli yondoshish qaror topib bormoqda. Natijada, ijtimoiy ish faoliyat turiga bo'lgan talab va ehtiyojlar jamoatchilik fikri asosida o'rganilib, ularni rivojlantirish uchun zaruriy moddiy-texnika bazasi hamda kadrlar tayyorlash masalasi kun taribiga qo'yilmoqda.

Uchinchidan, barcha sohalarda tabiiy kuzatilayotganidek, ijtimoiy ish faoliyatini tashkil etish, uning ishtirokchilarini o'rganish borasida hali qator muammolar mavjud bo'lib, mazkur holat ilmiy-tadqiqotlarni yanada kuchaytirishni talab qilmoqda. Asosiy masalalar sifatida aholini ijtimoiy himoya qilishda jamoatchilik fikrini o'rganish masalasida hududiy, milliy, diniy va etnik xususiyatlarga ko'proq e'tibor berish lozimligini va masalani takomillashtirishda aynan shu xususiyatlarga asoslanish lozimligi mavjud muammolarni yechimini topishga yaqindan yordam beradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, biz ijtimoiy ish obyekti va subyekti masalasini o'rganish hamda takomillashtirish yo'llarini aniqlash uchun quyidagi takliflarni berish o'rini bo'ladi deb hisoblaymiz.

1. O'tkazilgan tadqiqotlarimiz natijasida ta'lim muassasalari vikillari bilan bevosa muloqot o'tkazilib ta'lim samaradorligi salbiy ta'sir qilayotgan omillar bilan tanishib chiqildi. Bu borada o'qituvchilaring sinf xonalarida o'quvchilarning son jihatidan ko'pligi borasidagi fikrlari umumlashtirilib umumta'lim maktablarida sinfdagi o'quvchilarning sonini qisqartirish bo'yicha takliflari qabul qilindi. Tuman va shahar hududlariga yangi maktablar bunyod etish shuningdek, xususiy ta'lim muassasalar bilan davlat sherikchiligi asosida yangi loyihamar ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb topildi.

2. Aholini ijtimoiy himoya qilish sifatini oshirishda joylarda faoliyat olib borayotgan o'zini o'zi boshqarish organlari – mahalla institutiga alohida katta e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda mahalla aholiga moddiy yordam ko'rsatish masalasida katta tajribaga ega bo'lgan institut hisoblanadi. Ushbu imkoniyatni to'g'ri baholab mahallani ijtimoiy ish obyekti sifatida funksiyalarini oshirish, ichki zahira va imkoniyatlarini safarbar qilishda keng jamoatchilik fikriga tayanish taklif yetiladi.

3. Ijtimoiy ish hodimlari o'z faoliyati davomida turli millat vakillari, tulki toifadagi insonlar bilan birgalikda ishlashlarini inobatga olgan holda ularni qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llarini o'rganish, xorijiy mamlakatlarda qo'lga kiritilgan ilg'or metod va vositalari bilan tanishishi bugun asosiy vazifalardan biridir. Bu masala bizda xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha alohida chora-tadbirlar belgilash bo'yicha qo'llanilayotgan metod va vositalarda ham o'z ifodasini topmoqda. Har bir ijtimoiy ish xodimi o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda dunyodagi ilg'or tajribalardan foydalanish uchun albatta chet tilini muloqot qilish darajasida yaxshi bilishi talab etiladi. Shundan kelib chiqib biz mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarga xorijiy tillarni o'qitish masalasiga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.



4. Ijtimoiy ish sohasi bilan ishslashda yangi innovatsion g'oyalar va metodlardan foydalanish shu kunning muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib, biz ijtimoiy ish xodimlarini nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ishslash hamkorligini kuchaytirish qolaversa, memarandum shartnomalarini imzolashni taklif etamiz. Hususan, jamoatchilik bilan to'g'rida-to'g'ri ishslash mexanizmlari nodavlat notijorat tashkilotlarda, siyosiy partiyalarda samarali yo'lga qo'yilgan. Ilg'or metod va texnologiyalarni hamkorlikda qo'llanilishi bu sohada mavjud muammolarni o'rganish va ilg'or yechimlarini topishda yaqindan ko'mak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: O'zbekiston, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olıyanob xalqımız bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston" – 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. 2019 yil 23 avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi. T.: 2020 yil 24 yanvar.

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi.

6. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2023 yil.

7. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Jamoatchilik nazorati to'g'risida. 12.04.2018. Qonunchilik palatasi tomonidan 2017 yil 15 noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2018 yil 29 martda ma'qullangan.

8. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. (2017 yil 7 fevral).

9. "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 25.07.2022 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-175-sonli Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.(2016 yil 14 sentyabr).

11. Abduraxmonova M.M. Ijtimoiy ish kasbi y faoliyatining maktabga yo'naltirilgan sohasini rivojlanishida jahon amaliyoti tajribalari. Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. 6-son, 3-jild. T.2020 yil.



12. Abduraxmonova M.M. Ijtimoiy boshqaruvda jamoatchilik fikri samarali qaror qabul qilish omili. №004201 mualliflik huquqi guvoxnomasi. 2021 yil 10 dekabr.
13. Abduraxmonova M.M. Maktablarda samarali qaror qabul qilish uchun jamoatchilik fikrini o'rganish zaruriyati. Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali 1-maxsus son. T. 2021 y.
14. Abduraxmonova M.M. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim tizimida ijtimoiy ish kasbiy faoliyatini shakllantirish mexanizmlari. Monografiya. Farg'ona, 2021 y.